

3. Karvonimizga **qaroqchilar** hujum qilib, hammani o'ldirishdi.
4. Chunki odamzodning boshiga qachon musibat, **og'ir** kunlar tushsa, u kasb-hunar, **umr, hayot** haqida o'ylay boshlaydi-da.
5. Shunda chol unga shu yerda **temirchilikni** o'rganib, kun ko'rishini taklif qilibdi.
6. U kasbini puxta o'rganib, mohir **temirchi** bo'lib yetishibdi.
7. Vaqtlar o'tib, bu yurt juda **qudratli** sultanatga aylanib, fuqarolari **farovon** hayot kechira boshlabdi.

**3-topshiriq.** Hunar va mehnatsevarlik haqida maqollar yozing.

1. Mehnat – mehnatning tagi rohat.
2. Mehnat qilib topganing, Qandu asal totganing.
3. Hunarli er xor bo'lmas, Do'st-dushmanga zor bo'lmas.

#### **V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.**

**Savol-javob o'tkaziladi.**

– Hikoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifa berish.** *Hikoyatni ifodali o'qib, erkin so'zlab berishga tayyorlaning.*

### **14-mavzu: Kitob va boylik(Hidoyat Olimova)**

#### **Darsning maqsadi:**

- a) **ta'limiy:** o'quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, o'quvchilarni to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga o'rgatish.
- b) **tarbiyaviy:** o'quvchilarga ilm olishga va kitob o'qishga qiziqtirish, kitobxonlikka o'rgatish.
- c) **rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini, og'zaki nutqini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish, "Klaster" metodi, savol-javob, ta'limiylar o'yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

**Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:**

Salomlashish. Davomatni aniqlash.


O'quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

**II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "*Hunarli mingni yengar*" hikoyatini o'quvchilar ifodali o'qib, qayta hikoyalab beradilar.

**"Klaster" metodi.** Podshoh qanday edi?



**III.Yangi mavzu bayoni.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning kitob haqida aytganlari o'quvchilarga o'qitiladi va mazmuni izohlanadi.

**Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak  
ma'naviyatga erishib  
bo'lmaydi. Kitob o'qimagan  
odamning ham, millatning ham  
kelajagi yo'q.**

**Shavkat Mirziyoyev**

**Bugungi mavzu e'lon qilinadi:** "Kitob va boylik" hikoyati ifodali o'qib beriladi va mazmuni tushuntiriladi.

**Lug`at ishi:**

**Dovruq** – shon-shuhrat, mashhurlik

**Faqir** – kambag`al

Hikoyat o`quvchilarga [zanjur usulida](#) o`qitiladi.

#### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**"Kim hozirjavob?" o`yini.**

O`quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.

**1.**Hikoyat nima haqida ekan?

**2.**Boy odam Hasan Dashtiyning faqirligini bilib qolib, unga nima dedi?

**3.**Oradan bir qancha vaqt o'tib qanday voqeа sodir bo'ldi?

**4.**Hasan Dashtiyning kitoblari qanday saqlanib qoldi?


**5.**Boy odam bu voqeadan so'ng qanday xulosa chiqardi?

**6.**Kitob boylikdan ustunmi? Nima deb o'ylaysiz?

### **Rasmlar orasidan topishmoqning javobini toping.**

O`quvchilar rasmlar orasidan topishmoqning javobini topadilar.

Tinmay o'qisang agar,  
Ko'p narsani o'rgatar.  
Bilsang, uka, o'ylab top,  
Bilim koni u ...




**(Kitob)**

### **Mashq daftар bilan ishlash.**

**1-topshiriq.** Kitobga ta'rif bering.

O`quvchilar kitobga ta'rif beradilar.

**"Klaster" metodi.**



**2-topshiriq.** Kitob haqida berilgan maqollarni davom ettirib, yozadilar.

1. Kitob – bilim bulog‘i, O‘quvchining o‘rtog‘i.
2. Kitob – xazina, Bilim – boylik.
3. Kitob – aql qayrog`i.

**3-topshiriq.** Savollarga javob yozing.

O‘quvchilar mashq daftarida berilgan savollarga javob yozadilar.

**4-topshiriq.** “Kitob – mening do‘simsan” mavzusida kichik hikoya yozing.

Uy vazifasi qilib beriladi.

#### **V.Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.**

Savol-javob o‘tkaziladi.

– Siz ham kitob o‘qishga qiziqasizmi?

Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish.** *Hikoyani ifodali o‘qib, erkin so‘zlab berishga tayyorlaning. Hikoya asosida “Kitob – mening do‘simsan” mavzusida matn yozing.*